

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Razvitiye cifrovoy transformatcii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan .....	129
<b>Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna</b>	



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
<b>Abdullahayev Boburjon Akbaralievich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
<b>H. З. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoiria Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
<b>Хусанов Каҳрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
<b>Bobayev Isroijon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



# YASHIL BUDJETLASHTIRISH VA UNI O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

**Meyliev Obid Raxmatullayevich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),  
Toshkent moliya instituti dotsenti

**Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

Toshkent moliya instituti moliya fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada respublika iqtisodiyotida olib borilayotgan yashillashtirish va yashil budgetlashtirish sohasidagi ishlar tadqiq qilingan. Asosan, mamlakat Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarolarning amaldagi ijrosi va natijasi, rivojlangan davlatlar tomonidan joriy etilgan amaldagi xalqaro tajribalarini o'rganish va uni yurtimizda tatbiq qilish istiqbollari yoritilgan. Bundan tashqari, maqolada so'nggi yillarda yurtimizda davlat budgetining tarkibi va yashil budget, yashil budgetlashtirishga oid amalga oshrilgan tadbirlar tasnifi va budget xarakatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil budget, davlat budgeti, budget daromadlari, budget daromadlarini optimallashtirish.

**Abstract:** The work in the field of greening and green budgeting in our republic's economy is discussed in this article. The real execution and results of the president's decisions, the study of practical worldwide experiences introduced by developed countries, and the reforms of their implementation in our country are emphasized. Furthermore, this essay discusses the makeup of the state budget as well as the current optimization of budget income and expenses in our country.

**Key words:** green economy, green budget, state budget, budget revenues, budget revenue optimization.

**Аннотация:** В статье исследована работа в области экологизации и зеленого бюджетирования в экономике республики. В основном освещены фактическое исполнение и результат решений, принятых президентом страны, изучение текущего международного опыта, привнесенного развитыми странами, и перспектив его внедрения в нашей стране. Кроме того, в статье представлена информация о составе государственного бюджета и зеленого бюджета, классификации мероприятий, связанных с зеленым бюджетированием, и бюджетных расходах за последние годы в нашей стране.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, зеленый бюджет, государственный бюджет, доходы бюджета, оптимизация доходов бюджета.

## KIRISH

Insoniyat so'nggi o'n yillik davomida iqtisodiy global muammolar va inqirozlarning, jumladan tabiiy ofat va boshqa stixiyali kuchlar ta'sirida vujudga keladigan iqtisodiy-moliyaviy hamda ijtimoiy zararlarning ortishi, tabiiy resurslarning, bioxilma-xilliklarning haddan tashqari kamayib ketishi va ijtimoiy tabaqalanishning oshishi kabi muammolarga duch kela boshladi. Bu keltirilgan ekologik muammolarga birgina yo'l bilan yechim topishning iloji yo'q. Shu sababdan ham ekologik, ham iqtisodiy jihatdan yondashgan holda bu tizimli muammolarni hal etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan "yashil iqtisodiyot", "yashil budget" kabi atama va boshqa terminlar iqtisodiyot va moliya sohasiga kirib keldi. "Yashil iqtisodiyot" deganda ekologik xavf-xatarlarni minimallashtirish, resurslardan muqobil hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhit, tabiatga minimum zarar yetkazgan holda iqtisodiy faoliyat olib borish nazarda tutildi.



Hozirgi kunda yashil iqtisodiyotga o'tish rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tomonidan urg'u berilmorda, natijada tabiiy resurslardan unumli foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga erishish maqsad qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda yashil budgetlashtirishni amalga oshirish uchun bir necha yo'nalishlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilardir:

- Budget mablag'lari xarajatlari va davlat sektori subyektlarining atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini qamrab olishi;
- Fiskal siyosatning ekologik maqsadlarga muvofiqligini baholash uchun foydalanilgan metodologiya;
- Jarayonning shaffofligi va hisobdorligi;
- Boshqaruvi, davlatning har bir sektor ustidan ekologik nazorati<sup>[1]</sup>.

Jumladan, mamlakatimizda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiya-sida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida yashil va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida 2022-yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori qabul qilindi<sup>[2]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

"Yashil iqtisodiyot" atamasi birinchi marta ingliz iqtisodchisi (Pierce) tomonidan 1989-yilda "Green Economy Blue Book" nomli kitobida qayd etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, tabiiy resurslarning kamayishi, agar iqtisodiy kengayishi mavjud tabiiy resurslar chegarasidan oshib ketsa, iqtisodiy o'sish doimiy turg'unlikda bo'lishidir<sup>[3]</sup>.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining keng tarqalgan nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "Yashil iqtisodiyot" – bu "odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir<sup>[4]</sup>.

Daniel Fiorino o'zining "Cheksiz yer yuzida yaxshi hayot: Yashil o'sishda iqtisodiy siyosat"<sup>[5]</sup> nomli kitobida atrof muhitni himoya qilishimiz kerakligi uchun emas, balki iqtisodiyot ekologik rivojlanishsiz mavjud emasligi tufayli iqtisodiyot va ekologiyani birgalikda rivojlantirish kerakligini ta'kidlaydi. Bu orqali "yashil iqtisodiyot" ning hozirgi global ekologik va iqtisodiy inqirozlar kuchaygan davrda muhimligini isbotlaydi.

Yuqorida xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ta'kidlangan fikrlardan shuni xulosa qilamizki, "Yashil budget", "Yashil budgetlashtirish" atamalari davlatning moliyaviy siyosatini mamlakatning ekologik ahvoliga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilagan holda amalga oshirishdir. Yashil budgetlashtirishning universal ta'rifi yo'q hisoblanib, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlardan budgetlashtirish siyosati rahbarlari va iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan.

Yevropa Komissiyasiga ko'ra, "Yashil budgetlashtirish ijobiy iqlim sharoitiga erishishga yordam berish uchun budget siyosatini ishlab chiqish vositalaridan foydalanishni anglatadi"<sup>[6]</sup> deb qisqacha ma'lumot berilgan.

Ronni Dauns OECD budgetlashtirish va Davlat xarajatlari bo'limi boshlig'ining o'rinosari fikricha, "Yashil budgetlashtirish" budgetdan foydalanishni maqsad qilgan – soliqlar, xarajatlari va siyosat koordinatsiyasi-ekologik maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan muvofiqlikni baholash va targ'ib qilishdan iborat. Masalan, yashil budgetlashtirish iqlim o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan moliyaviy xarajatlarni ko'rsatadi va yoqilg'i sifatida duch kelishi kerak bo'lgan, "dekarbonizatsiya qilingan", davlat daromadlarini yo'q qilish soliq siyosati tanlovi ekanligini ta'kidlaydi.

Iqtisodchi olimlar David Wilkinson, David Benson va Andrew Jordan qarashlariga ko'ra, "Yashil budgetlashtirish" turli moliyaviy institutlar va vositalarni o'z ichiga olgan qulay stenokdan iboratdir. Bunda xarajatlarning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, yillik xarajat dasturlarini qabul qilish va amalga oshirish, ularning samaradorligini monitoring qilish va baholash hamda daromadlarini ko'paytirish jarayoni o'ziga xos budget "hayot sikli" ni tashkil etadi. Har bir bosqich potensialga muhim ekologik ta'sirga ega bo'lganligi sababli, ularning barchasi har qanday yashil budget amaliyotida birlashtirilishi kerak"<sup>[7]</sup>, deb o'z fikrini berib o'tadi. Biroq bu jarayonda siyosiy sektorlarni va ko'p tizimli boshqaruvi tizimlarini darajalarini bosib o'tuvchi qadamlarni qo'yishni o'z ichiga oladi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda ham yashil budget siyosatini amalda qo'llash murakkab jarayonligini anglatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda "budget" va "yashil budgetlashtirish" bo'yicha xorijiy mamlakatlarning amalga oshirgan loyiha dasturlari nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan hamda O'zbekistonda bu amaliyotlarni joriy etish bo'yicha xulosalar statistik tahlil natijasida berilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqot va sohaga oid tashkilotlar olib borayotgan ilmiy nazariyalari o'rganilgan. Tadqiqotda ilmiy tahlil, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, jadval va boshqa bir qator usullardan keng foydalanilgan.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash va aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash davlatning operatsion va strategik moliyaviy rejasiga bog'liq. Bunda davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasini hisoblanib turli iqtisodiy mohiyatga egadir. T. Malikov va N. Haydarovlarning "Davlat budjeti" o'quv qo'llanmasida davlat budgetiga quyidagicha ta'rif bergan bo'lib, davlat budjeti kishilik jamiyatining ma'lum bir bosqichida namoyon bo'lgan bo'lib, asosan uning kelib chiqishi davlatning siyosiy tashkilot sifatida shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Har bir davr ijtimoiy tuzumga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlарining asosiy belgilari davlat faoliyatining va budgetining taqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilab beradi [8].

Bugungi kunda davlat budgetidan davlat qarzi, tashqi qarzlarini kamaytirishda, uning daromadlari hajmini oshirish va xarajatlari bilan mutanosibligini saqlashda hamda mamlakat aholisining ekologik va iqtisodiy muhofazalanish ham davlat budgetining asosiy maqsadi va aynan davlat yashil siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda yetakchi rol o'ynaydi.

Shu sababdan, xalqaro tashkilotlar tomonidan va rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va yashil o'sishga o'tish holatini baholash maqsadida turli ko'rsatkich majmualari yaratilgan bo'lib, amalda qo'llanilmoqda. Asosan, hozirgi kunda dunyo bo'yicha yashil iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan yashil iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) va yashil o'sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko'rsatkichlari keng qo'llanilmoqda. 2010-yildan boshlab GGEI reyting ko'rsatkichi e'lon qilina boshlangan, 2022-yilda jami 160 mamlakat miqyosida 18 ta indikatorlar bo'yicha baholash natijalariga erishilganligi taqdim qilingan. Bu indeksda boshqaruv va iqlim o'zgarishi (leadership & climate change); samaradorlik sektorlari (efficiency sectors); bozor va investitsiyalar (market & investment); atrof-muhit (environment) kabi 4 ta o'lchov kategoriyalari bo'yicha baholanadi.

"Yashil" o'sish indeksi (GGI) ham bugungi kunda keng qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals), Parij iqlim bitimi majburiyatları, Aichi bioxilma-xillik maqsadlari (Aichi Biodiversity Targets), bundan tashqari, resurslardan samarali va barqaror foydalanish, tabiat mulklarini himoyalash, yashil iqtisodiy imkoniyatlar, mamlakatdagi "yashil o'sish" bo'yicha ijtimoiy holatni baholaydi. yashil o'sish indeksi 4 ta maqsadli yo'nalish, 16 ta kategoriylar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo'lib, deyarli barcha davlatlarni o'z ichiga olgan holda faoliyat yuritib kelmoqda. "GGI" indeksiga ko'ra, eng yuqorida Shvetsiya, Fransiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar hamda Zimbabve, Jazoir, Nigeriya singari Afrika mamlakatlari eng past yashil o'sish ko'rsatkichiga ega. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qирг'изистон mazkur reyting bo'yicha yuqori o'rindagi ko'rsatkichlarni qayd etgan.


1-jadval: "Yashil budgetlashtirish" tizimidan foydalanuvchi davlatlar [9]

Davlatlar	Izoh
Daniya	Bu mamlakatning budget tavsifiga ko'ra, iqlim o'zgarishi va iqlim oqimi bilan bog'liq ishlar rasmiy ravishda budget sikliga kiritilmagan bo'lib, ikki jarayon parallel ravishda ishlaydi. Bundan tashqari, Daniya yashil budgetlashtirishda o'zining "Greenreform" iqtisodiy siyosatning atrof-muhit va iqlimga ta'sirini integratsiyalashgan va izchil baholash imkonini beruvchi tahliliy vositani 2015-yildan 2100-yilgacha ishlab chiqqanligi sababli yetakchi o'rinda.
Fransiya	Fransiya 40 foizgacha uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun Parij bitimini yaratdi va bunga erishdi. Frantsiya hukumati atrof-muhitni baholash uchun oltita ekologik maqsadni qo'ydi. Yashil budget siyosati doirasida davlat xarajatlarining ta'sirini izohladi, bularga: "iqlim o'zgarishini aks ettirish, iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy xavflarning oldini olish, suv resurslarini boshqarish, aylanma iqtisodiyot, chiqindilar; texnologik xatarlarning oldini olish, ifloslanishga qarshi kurash, biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy hududlarni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligi yerlari va o'rmonlar".
Shvetsiya	Shvetsiyada 1999-yildan beri ekologik o'zgarishlarni kuzatib borish uchun maqsadli tizim mavjud, ya'ni muntazam ishlashni budgetlashtirish jarayoniga kiritilgan. Bu umumiyligda ekologik maqsadni o'z ichiga oladi va 16 ta ekologik sifat maqsadlarining har biri o'ziga xos bosqichga, ishlash ko'rsatkichlariga ega va natijalar har yili taqdim etiladigan baholash mezonlari orqali tekshirib boriladi. 2018-yildan boshlab Shvetsiyadagi iqlim to'g'risidagi qonun, mamlakatga erishish yo'lidagi taraqqiyot to'g'risida alohida iqlim hisoboti iqlim maqsadlari budget hisobiga ilova qilindi.
Irlandiya	Irlandiya 2011-yildan ba'zi iqlim elementlarini o'z ichiga olgan budgetni o'tkazmoqda. Bu kengaytirilgan rejalar va iqlim bilan bog'liq ishlash ko'rsatkichlarining bir doirada integratsiyalashuvi.

Mamlakatimizda ham yashil budgetlashtirish va yashil iqtisodiyotga asosiy e'tibor qaratilib, birinchi martda 1993-yilda BMT ning iqlim o'zgarish konvensiyasiga qo'shilgan hamda 2017-yilda Parij bitimi imzolangan.



O'zbekistonda, 2021-yilda qabul qilingan majburiyatlarga muvofiq, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish, keyingi 5-yilda iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizgacha oshirish, va bu orqali 2030-yilga qadar havoga chiqariladigan issiqxona gazlari hajmini 2010-yil darajasidan 35 foizga kamaytirish rejalashtirilgan [10].



1-rasm: Davlat budget xarajatlari [11]

2022-yil davomida davlat budget xarajatlari 236,7 trln.so'mni tashkil etib, 13 foizi iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi deb baholandi, qolgan xarajatlari iqlim o'zgarishiga ta'sir qilmaydigan xarajatlar sirasiga kiritilgan yoki bu ko'rsatkichni aniqlashni imkonni mavjud emas deb respublikamiz rasmiy saytlarida izoh berilgan.

2-jadval: Iqlim o'zgarishlariga ijobjiy ta'sir xususiyatlariga ega bo'lgan xarajatlar, mlrd.so'mda [12]

Vazifa jihatdan tasnif bo'yicha		2022-yil
Guruhlari	Kichik guruhlari	
Umumiy davlat xizmatlari	Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat, davlat boshqaruvi, moliyaviy va fiksal munosabatlari, tashqi ishlar	4233,7
Iqtisodiy masalalar	Qishloq va o'rmon xo'jaliklari, baliqchilik va ovchilik Transport Boshqa iqtisodiy masalalar	13397,6 4204,6 1723,9
Atrof-muhitni himoya qilish	Atrof-muhitni himoya qilish	143,1
Uy-joy kommunal xizmatlari	Suv xo'jaligi Ko'chalarni yoritish Boshqa uy-joy kommunal xizmatlari	3605,9 216,4 822,8
Jamoat tartibi va xavfsizligi	Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish xarajatlari Boshqa jamoat xavfsizligi masalalari	12,2 535,6
<b>Jami</b>		<b>28998,5</b>

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan shuni ta'kidlaymizki, sohalar kesimida iqlim o'zgarishlariga ijobjiy ta'sir xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlarning 73 foizi qishloq va suv xo'jaligi (irrigatsiya) hamda transport sohalari hissasiga to'g'ri keladi.

Orol bo'yi mintaqasini rivojlantrish, atrof muhitni himoya qilish va ko'chalarni yoritish maqsadida qilingan xarajatlар mos ravishda 12.2 mlrd.so'm, 143,1 mlrd.so'm va 216,4 mlrd.so'mni tashkil etadi. Ko'rsatilgan statistik ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, atrof muhitni himoya qilish va mamlakatimizda joylashgan orolbo'yi hududlariga ajratilgan budjetdan mablag'lar boshqa xarajatlarga nisbatan sezilarli darajada kam miqdorni egalaydi. Buning natijasida, ekologik muammolarni bartaraf etishda yetarlicha e'tibor berilmaganligidan iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



**3-jadval:** Iqlim o'zgarishlariga salbiy ta'sir xususiyatlariga ega bo'lgan xarajatlar, mlrd.so'mda [13]

Vazifa jihatdan tasnif bo'yicha		2022-yil
Guruhi	Kichik guruhi	
Iqtisodiy masalalar	Qazib olish, qayta ishlash va qurilish	989,8
Jamoat tartibi va xavfsizligi	Qutqaruv xizmati	27,9
<b>Jami</b>		<b>1017,7</b>

Iqlim o'zgarishlariga salbiy ta'sir xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlarning asosiy qismi qazib olish, qayta lashtirish va qurilish sohasiga to'g'ri keladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, yashil iqtisodiyot va "yashil o'sish" ga oid turli shartnoma va bitimlar imzolanishiga hamda turli qonun, farmonlar qabul qilinishiga qaramasdan, "yashil budgetlashtirish" ga oid statistik manbalar rasmiy saytlarda yetarlicha mavjud emas.

## XULOSA

Global iqtisodiy inqirozlar va dunyo bo'ylab turli ekologik muammolar hozirgi kunda avj olmoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan bu kabi muammo va dolzarb masalalarga yechim topish maqsadida iqtisodchi olimlar tomonidan yashil iqtisodiyot tushunchasi fanga kirib keldi. Yashil iqtisodiyot deb, ekologik xavf-xatarlarni minimallaشتirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga minimum zarar yetkazgan holda iqtisodiy faoliyat olib borish nazarda tutiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yashil budgetlashtirishga o'tish va bu orqali iqtisodiy barqarorlikni hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilashga erishish uchun turli loyihamo ishlab chiqilib, amalda qo'llanilmoqda. Yevropa Ittifoqi a'zolarining 2/3 qismi yashil budgetlashtirishdan foydalaniadi, jumladan, Fransiya, Daniya va boshqa davlatlar o'z iqtisodiy siyosatining ekologiya bilan integratsiyalashuvida yuqori natijalarga ega bo'lib, bu ko'rsatkichlarni baholash imkoniga ham ega.

Respublikamizda mavjud bir qator ekologik muammolar va iqtisodiy sektorda ularning ta'siriga asoslanib, iqtisod va moliya sektorlarida yashil iqtisodiyot, yashil budgetlashtirishni amalga oshirish va rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni berib qolamiz:

- Alternativ energiya manbalarini rivojlantirish uchun zamonaviy yashil texnologiyalarni olib kirish;
- Issiqxona va uy isitish tizimlarida yashil energiyalardan foydalishni oshirish va natijada gaz emissiyalarining kamayishiga sabab bo'лади;
- Elektr mobil transport vositalarining respublika hududiga olib kirish uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish va rag'batlantirish;
- Energiya sarfini isrof qilmaslik va kamaytirish maqsadida yashil budgetlashtirish qo'llanmalarini joriy etish;
- Iqtisodiyotning rivojlanishida turizmning o'rni katta bo'lganligi sababli yashil turizmni rag'batlantirish, ekologik turizm obyektlarini rivojlantirish;
- Budget xarajatlarining shaffofligi hamda ekologiyani asrab-avaylashga yo'naltirilganligini ta'minlash maqsadida statistik ma'lumotlarning ochiqligi;
- Ijtimoiy aholi o'rtasida, xususan, bolalar va o'spirin yoshdagi qatlamlar orasida yashil iqtisodiyotning muhim va afzalligi haqida tushuntirish, profilaktika ishlarini olib borish zarur.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-budgetlashtirish-va-uni-o-zbekistonda-joriy-etish-istiqbollari/viewer>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-soni qarori.
3. [https://www.researchgate.net/publication/39015804\\_Blueprint\\_for\\_a\\_Green\\_Economy](https://www.researchgate.net/publication/39015804_Blueprint_for_a_Green_Economy)
4. Штайнер А., Айрис Р., Бесса С /Навстречу "зелёной" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности /. И др: ЮНЕП/ГридАрендаль. –2011. –С. 17.
5. Daniel Fiorino, A Good Life on a Finite Earth: The Political Economy of Green Growth (Oxford University Press, New York City, New York, 2018). –272 pp.
6. OECD. (2021c). Green Budgeting in OECD Countries. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/acf5d047-en>
7. <https://books.google.co.uz/books>
8. Malikov T.S, Haydarov N.H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma.–T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. –84-bet.
9. Muallif ishlanmasi
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yichachora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Ochiq budget portalı ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
12. O'zbekiston Respublikasi Ochiq budget portalı ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
13. O'zbekiston Respublikasi Ochiq budget portalı ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

